

O'SPIRINLIK DAVRIDA KONFORMIZMNING NAMOYON BO'LISHI

Matyoqubova Shohista Odamboy qizi

Toshkent Amaliy fanlar Universiteti "Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Har qanday jamiyatning ravnaqi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligini uning fuqorolarining ijodiy, axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Sh.M.Mirziyoyevning, O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasida so'zlagan nutqlaridan "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik bilan yakun topishi, e'tibordan qolib, o'zlarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq. Chunki xalqning boy ijodiy merosi va umuminsoniy qadriyatlarini asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tuzilishini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi". Konformlikka beriluvchan, ayrim referent guruhlarga bo'ysunuvchan o'smir yoki o'spirinlarni boshqarishga harakat qiluvchi yovuz kuchlarga o'rin qoldirmaslik, ulardagi bo'shliqni ma'naviy boylik bilan to'ldirish shu ijtimoiy jamiyatda yashab, faoliyat yuritayotgan har bir individning burchidir, jumladan biz bo'lajak psixolog konsultantlar ham mas'ulmiz bunga. Shuning uchun ham o'spirinlardagi konformlikni nomoyon bo'lishini o'rganish dolzarb muammolar sirasiga kiradi.*

Kalit so'zlar: *konformizm, o'spirinlik, opportunizm, Negativizm, Ichki konformizm, nokonformizm*

Asosiy qism: *Guruh o'z a'zolariga ma'lum tarzda psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa psixologiyada konformizm deb ataladi. O'zbek tilida "moslanish" ma'nosini bildiradi. Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlarini qanchalik tez qabul qilish yoki qabul qilmasligi bilan bog'liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish, uning ta'siriga berilish individ bilan guruh o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday xatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo'shilish turli shakllarda bo'lishi mumkin: tashqi konformlikda-individ guruh fikriga nomigagina qo'shiladi, aslida ruhan u guruhda qarshi turadi: ichki konformlikda-individ guruh fikriga to'lig'icha qo'shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o'rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo'lmaydi. Bu o'rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo'lsa "negativizm" tushunchasidir. Bu individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni*

namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay, lekin mustaqil fikr, odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan, demokratik munosabatlar ustuvor bo'lgan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydi, aksincha, sog'lom fikrlovchilar hamisha xushyorlikka chaqiradi. Ayrim adabiyotlarda esa konformlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: konformlik bu- boshqa shaxs yoki guruh tomonidan haqiqiy yoki tasavvur qilingan bosim ta'siri ostida xatti-harakatlarning yoki shaxs fikrining o'zgarishidir. Konformlik "o'xshash", "muvofiq" so'zlari bilan sinonim turishi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ammo og'zaki nutq bilan tushuntiradigan bo'lsak, opportunizm demakdir, siyosiy nuqtaiy nazardan qaraganda konformizm tinchlik va kelishuv demakdir. Shu o'rinda opportunizm atamasiga ta'rif beradigan bo'lsak, lotincha opportunus - "qulay", "samarali" ma'nolarini anglatadi. Opportunizm atamasi, siyosatda, siyosatshunoslikda va iqtisodiyotda keng qo'llanilsa ham, hamma sohalardagi qulaylik qisqacha aytadigan bo'lsak. Ijtimoiy psixologiyada konformlik konsepsiyasiga ta'rif berish uchun, shaxsning pozitsiyasiga nisbatan-shaxsning pozitsiyasining psixologik tavsifi sifatida konformlikning ta'riflari quyidagicha: muayyan standartni qabul qilish yoki rad etish, guruhga xos fikr, shaxsni guruh bosimiga bo'ysunishning o'lchovidir. Bosim muayyan shaxs yoki kichik guruh muayyan jamiyatdan kelib chiqishi mumkin.

Konformlik – boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, shaxsning konformizmga moyilligini ifoda etgan xususiyatlarini, ya'ni shaxsning nuqtaiy nazarini, fikrini, xatti-harakatini anglashini va ma'lum bir jamiyatda yoki ma'lum bir guruhda hukmron bo'lganlarga muvofiq berilganligini ko'rsatadi. Bunday holatda hukmronlik pozitsiyasini haqiqatda aniq ifoda etilishi yoki hatto mavjud bo'lishi ham shart emas. Konformlikning roli haqida. Faylasuf – neofreydist Erix Fromm konformizmning avtomatlashtiruvchi roli deb atalgan tushunchaga katta e'tibor berdi. Konformizm, uning so'zlariga ko'ra, zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan, insoniy xulq – atvorning himoyalangan shakli, konformizmdan foydalanib, o'zini o'zi yo'qotadi, madaniy modellar unga taqdim etadigan shaxsning turini to'liq egallaydi, boshqalarga va ular kutgan narsalarning aynan o'ziga aylana boradi. Biroq, bu kishida yolg'izlik hissi va his – tuyg'ularini his qilishiga yo'l qo'ymaydi –, deb hisoblaydi Fromm va yana qo'shimcha qilib, o'z menligini yo'qotgani uchun qachonlardir badal to'laydi ⁻¹, deb ta'kidalaydi. Quyida yana konformizm haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz: Konformizm effekti – bu oddiy holda inson xulq-atvorining o'zgarishi yoki guruh bosimi ostida o'zgarishidir. 1937 – yili Muzaffer Sherif guruhiiy normalarni laboratoriya sharoitida o'rgangan: Qorong'u xonada ekrandek nuqtadek nur manbasi ko'ringan, keyin bir necha daqiqa harakatlanib keyin yo'qolgan. Sinaluvchi nur manbasini birinchi holatga nisbatan necha santimetr yaqinlashganini aniqlashi lozim. Oldin sinaluvchini biri

¹ Быченков. В. М. конформизм. Новая философская энциклопедия. 2010. с 275 ¹

o'zi bu eksperimentdan mustaqil o'tadi. Ikkinchi etapda 3 sinaluvchi bu eksperimentdan o'tadi. Birinchi sinaluvchi ikkinchi etapdagi sinaluvchilar gapini tasdiqlaydi. Muzaffer Sherif birinchi bo'lib insonlar ko'pchilikni fikriga qo'shilishini isbotladi. 1956-yili Solomon Ash "konformizm" atamasini qo'llagan va guruhga bog'lagan. Guruhda 7 ishtirokchi bo'lib, ular plakatda chizilgan 3 kesmalardan qaysi biri etalonga mos kelishini aniqlashi lozim edi.

Birinchi etapda ishtirokchilar bitta-bitta bo'lib, to'g'ri javob berishadi.

Ikkinchi etapda guruh a'zolari yig'ilib javob berishadi:

Ash ma'lumotlariga ko'ra 37% sinaluvchilar guruh fikriga quloq solishdi.

17

Richard Krachvild esa yulduzlar va aylana egallagan masofani aniqlashni bergan. Bu noan'anaviy savolda ham guruh fikriga quloq solishgan. Yuqorida kuzatilgan barcha eksperimentlar natijasi guruhda konformlik mavjud ekanligini ko'rsatadi.

1965-yili Stenli Milgram konformizmni keltirib chiqaruvchi sharoitlarni sanab o'tgan:

- shaxs tipi;
- guruhdagilar soni;
- guruh tarkibi;
- guruh ahilligi;
- a'zolarining kimligi;

Solomon Ash o'z tadqiqotlaridan xulosa qilib, guruh bosimi ostidagi 4 tipini keltirishimiz mumkin: Tashqi konformizm – bunda sinaluvchi guruh normalaridan va a'zolaridan qo'rqgani uchungina guruh fikriga qo'shiladi, aslida u o'z fikrida turadi.

Ichki konformizm – bunda sinaluvchi xohlab guruh fikriga qo'shiladi.

Negativizm – guruh bosimiga qarshi chiqadi, o'z fikrida qat'iy turadi, bunday tipdagilar guruhga bo'ysunishni emas, guruhni bo'ysundirishni xohlashadi.

Nonkonformizm – mustaqillik, ko'pchilikga qo'shilmaydi va bog'lanmaydi.

Guruhlararo qaramlik va birgalikdagi faoliyat bo'yicha V.S. Ageyev 1983-yili sessiya oldida turgan Moskvadagi texnika oliy o'quv yurti talabalarida eksperiment o'tkazadi:

U 2 guruhni olib bir fandan, bir o'qituvchiga, bir vaqtning o'zida imtihon topshirishni belgilaydi. Bunga ko'ra seminar guruhi bo'lgan guruh avtomatik tarzda baho olgan, qolgan guruh esa oddiy holda imtihon topshirishni belgilaydi. Bunga ko'ra seminar guruhi bo'lgan guruh avtomatik tarzda baho olgan, qolgan guruh esa oddiy holda imtihon topshirgan. Eksperimentator kirib seminar baholari yuqori bo'lgan guruhni favorit(a'lo) deb e'lon qilgan, lekin hali imkon bor favorit bo'lishga deb aytib o'tgan.

Bu eksperimentda eksperimentator o'z farazini tasdiqlagan ya'ni:

Guruh a'zolarining bir-birini qo'llab quvvatlashi ortgan;

Imtihonda javob beruvchilar ham ko'paygan;

Imtihon oluvchining roli kamaygan;

XX asrning 60-70-yillarida Angliyaning ijtimoiy psixologlari Anri Tashfel boshchiligida guruhlararo eksperimentda, guruh ichidagi jipslikni aniqlagan. U talabalarga V.Kardinskovo va P.Kleelar tomonidan chizilgan suratlarni ko'rsatadi va talabalarni ikki guruhga bo'ladi. Bu guruhlarni biri V.Kardinskovani ishini, ikkinchi guruh esa P.Klee ishini yutuqlarini aytib o'tishlari lozim bo'ladi. Bu eksperimentda guruhlar bir – biri bilan shu darajada yaqin bo'lishadiki, Anri Tashfelning farazi isbotlanadi. M.L.Btovskayaning fikricha, guruh ichidagi nizolarda o'gil bolalarga nisbatan qiz bolalar tezroq yechimni hal qilishga kirishadi. Qiz bolalar nizodan so'ng aytgan gaplariga afsuslanishadi, o'gil bolalar esa nizoda o'z mavqelarini oshirishni o'ylashadi.²

Konformlik va itoat qilish hodisalari ham sinonim ham universal hodisalardir. Va ularning ifoda darajasi ham, madaniyatdan madaniyatgacha o'zgaradi. Masalan: Yevropa yoki amerikaliklarda ulug'lanadigan individualizm, Osiyo madaniyatida qoralanib, aksincha kollektivizm ulug'lanadi. Rod Bond va Piter Smit tomonidan olib borilgan 17 ta mamlakatda 133 ta tekshiruvning tahlili shuni tasdiqlaydiki, madaniy qadriyatlar konformlik darajasiga yoki hodisaning kuzatilishiga ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, individualistik davlatlarda yashovchi xalqlarga, kollektiv davlatlardagi xalqlarga nisbatan ta'sir qilish qiyin, ya'ni konformlik ularda pastroq bo'ladi.³

Yaponiyada boshqalarga "bo'ysunish" qobiliyati – bag'rikenglik, o'zini tuta bilish va ruhiy yetuklikning belgisi, zaiflik emas. Yaponiyada har bir joyda bir-biridan nimani kutishlari mumkinligini juda yaxshi biladigan insonlar tavsiflanmaydi.⁴

Konformlikka nisbatan David Mayersning "Ijtimoiy psixologiya" kitobida Jon Styuart Mill shunday ta'rif beradi: "Qanday nom bilan atalib, ulug'lanmasin, inson fikrini o'zgartiradigan har qanday narsa, despotizmdir ya'ni hukmronlik". Aynan shu kitobda, Amitay Etsioni konformlikni ijtimoiy bosimdir, jamiyatimizdagi ijtimoiy bosimning esa, axloqiy qadriyatlarimiz uchun to'lovlari bor - , deb ta'kidlaydi.

Xulosa: Konformlikning mavjud bo'lishi ayrim g'arb olimlari tomonidan illat ekanligi haqida yuqorida nazariy ma'lumotlar qismida berilib o'tildi. Ammo, biz sharq davlatlarida konformlik hislat sifatida qaralishini ham ma'lumotlar orqali bilib oldik. Ayniqsa, yapon olimlari konformlikni ulug'lab yozganlarini ham yuqorida guvohi bo'ldik. Bundan chiqdi konformlikning kuzatilishi shaxsdagi illat emas balki, ma'lum vaziyatlarda hislat sifatidan namoyon bo'ladi. Mental xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda guruh fikriga xayrixohlik biz, o'zbeklar uchun ham hislat sifatida ulug'lanadi. Tadqiqotimizning yakuniy qismida shuni ta'kidlash lozimki,

² Z.Nishanova "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya". -T.:2015. B 377.

³ "Ijtimoiy psixologiya" M.YU.Gorbunova.: Moskva-2006 vladost press. B.122

⁴ Markus & Kitayama. 1994. Morrow. 1983. D.Mayers "social psychology".; Piter 2002. B.448

konformlikning o'spirinlarda namoyon bo'lishi ulardagi jinsiy hamda boshqa farqlar bilan bog'liqligini Liri-Sobchik metodikasi orqali isbotladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. . G'oziyev.E.G' "Ontogenez psixologiyasi"-T.:Noshir.2010.B 214
2. Jalilova.S.X "Yosh davrlar psixologiyasi"-T.:2016.B 122
3. G'oziyev.E.G'.Psixologiya(Yosh davrlar psixologiyasi).O'quv qo'llanma-T.: "O'qituvchi", 1994
4. Karimova.M.V."Ijtimoiy psixologiya" T.:2007.B 87
5. Nishanova.Z, Qarshiyeva.D, Atabayeva.N, Qurbanova.Z "Psixodiagnostika va eksperiment psixologiya"-T.:2015.B 377.
6. Karimova.M.V.Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.O'quv qo'llanma.-T.:Universitet, 1999.

